

10-SINF

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(1-hafta)



1-keys. “Agar qaror mening qo‘limda bo‘lsa...”



Vaziyat:

Tasavvur qiling, sizga maktab yoshlarining rivojlanishi uchun qo‘shimcha mablag‘dan foydalanish imkoni berildi. Qaysi yo‘nalishlarni tanlar edingiz?



kutubxona



zamonaviy
texnologiyalar



sport



kasbga
yo‘naltirish



ijodiy
to‘garaklar



Savollar:

- 1 Qaysi yo‘nalishlarni tanlardingiz?
- 2 Nima uchun aynan shu qarorni qabul qildiniz?
- 3 Qaroringizning kelajakda qanday natijasi bo‘lishi mumkin?
- 4 Mustaqil qaror qabul qilishda shaxsiy xohishning o‘zi yetarlimi?



Topshiriq:

1 daqiqalik “Men — qaror qabul qiluvchi rahbar” chiqishini tayyorlang!



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK
VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(1-hafta)



2-keys. “Erkinlik va qonun”



Vaziyat:

Bir yosh: “Inson erkin bo‘lsa, unga hech qanday qoida kerak emas”, — deb hisoblaydi.

Boshqa yosh esa: “Qonun va qoidalar insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun ham kerak”, — deb fikr bildirdi.



Savollar:

- 1 Qaysi fikri asosli deb hisoblaysiz?
- 2 Nima uchun erkinlik qonun bilan bog‘liq?
- 3 Agar jamiyatda hech qanday qoida bo‘lmasa, qanday oqibatlar yuzaga kelishi mumkin?
- 4 Mustaqil fuqaroning eng muhim mas‘uliyatlaridan biri nimada?



Topshiriq:

Erkinlik → Huquq → Burch → Mas‘uliyat tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni sxema shaklida ifodalang.



Erkinlik



Huquq



Burch



Mas‘uliyat

